

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 4-son

VOLUME 7 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.4.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 5 **AXMEDSHAYEVA MAVLYUDA AXATOVNA**
Hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi va uning
shakllanishiga doir ayrim nazariy masalalar

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 17 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЬЯС ТАВАСОВИЧ**
Послание Президента страны к народу и
Олий Мажлису: конституционно-правовой
анализ
- 26 **YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**
Oliy ta'lim transformatsiyasi: YUNESKOning
"Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish
to'g'risida"gi Global konvensiyasini ratifikatsiya
qilish zarurati
- 35 **АЛИМУХАМЕДОВ СУХРОБ
АЙБЕКОВИЧ**
Децентрализация системы государственного
управления в унитарных и федеративных
государствах: сравнительно-правовой анализ
- 49 **YULDOSHBEKOV AVAZBEK
ALISHER O'G'LI**
Soliq maslahati tushunchasining nazariy-huquqiy
jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 58 **ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ
РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК
РУСТАМБЕКОВИЧ**
Реформирование основ сравнительного
правоведения в цифровую эру: новые
принципы и подходы

- 85 **БАЛТАБАЕВА ЖИБЕК БАУЫРЖАНОВНА**
Улучшение системы взыскания алиментов
в Казахстане: проблемы и перспективы

- 94 **ГАФФОРОВ МЕХРАНГИЗ ШАВКАТОВИЧ**
Гражданско-правовые способы защиты
слабой стороны договора

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 107 **CHORIYEV ANVAR QO'ZIYEVICH**
Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar
shaxs huquq va erkinliklarini suddan tashqari
himoya qilish shakllari sifatida

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

- 116 **MAXMADIYAROVA XUMORA O'KTAMOVNA**
Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash
bosqichida taraflar tortishuvini ta'minlash

- 122 **OLIMOV BEKMIRZA TUXTAPULATOVICH**
Ekspertiza tayinlash va o'tkazishda shaxs
huquqlarini ta'minlash

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 129 **БАЛЕЕВ АРТУР МАХМУДОВИЧ**
Правовое регулирование агентской
деятельности в Республике Узбекистан

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (SOHALAR BO'YICHA)

- 138 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**
TURABAYEVA LAZZAT KALIKULOVNA
Ta'limda innovatsion texnologiyalar

- 146 **НИЯЗОВА НАСИБА ЖУРАБЕКОВНА**
Правовое регулирование статуса языка и
особенности его использования в различных
источниках права

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.4./KYKS1672>
UDC: 340:061.1/2(045)(575.1)

OLIV TA'LIM TRANSFORMATSIYASI: YUNESKONING "OLIV TA'LIMG'A OID MALAKALARNI TAN Olish TO'G'RISIDA"GI GLOBAL KONVENSIYASINI RATIFIKATSIYA QILISH ZARURATI

Yakubov Shuhrat Ummataliyevich,

Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi direktori,
yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0002-1512-9013
e-mail: shuhrat.yakubov.uzb@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada YUNESKOning "Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risida"gi Global konvensiyasi SWOT-tahlil metodi asosida ilmiy tadqiq qilingan. Mazkur xalqaro konvensiyani O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilish zarurati, uning kuchli va zaif jihatlari, imkoniyat va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlar haqida mulohazalar ilgari surilgan. Hozirgi kunga qadar ushbu Global konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar amaliyoti o'rganilgan. Oliy ta'limni transformatsiya qilishda mazkur konvensiyaga qo'shilish asosida erishiladigan natijalar ilmiy-huquqiy prognoz qilingan. Shuningdek, transchegaraviy ta'limni tan olish sohasidagi umumiy yo'nalish, yondashuv hamda mexanizmlar asosida O'zbekiston milliy qonunchiligi va amaliyotini isloh qilish masalalari ko'rib chiqilgan. Jismoniy shaxslarning oliy ta'limga oid malakalarining adolatli va shaffof tarzda, hech qanday kamsitishlarsiz tan olinish huquqi dunyoning barcha mamlakatlarida so'zsiz kafolatlanishi zarurligi qayd etilgan. Shundan kelib chiqib, O'zbekistonning ushbu konvensiyaga qo'shilishi, zarur tashkiliy-huquqiy va institutsional mexanizmlarni shakllantirish masalalari ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqot yakunida ayrim kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavflar, xatarlarga qaramasdan, O'zbekiston tomonidan Global konvensiya tezroq ratifikatsiya qilinishi zarur, degan xulosaga kelingan. Mahalliy oliygohlarning dunyoning yetakchi universitetlari bilan integratsiyasi kuchayishi, xalqaro reytinglardagi o'rni oshishi, ta'lim xizmatlarining tashqi bozorga chiqishi va eng muhimi, insonlarning oliy ta'lim olish huquqini ta'minlash uchun ushbu konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi zarurligi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: global konvensiya, transchegaraviy ta'lim, oliy ta'lim, malakalarni tan olish, akademik mobillik, ratifikatsiya, transformatsiya, milliy malakalar, ilmiy daraja, ilmiy unvon.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: НЕОБХОДИМОСТЬ РАТИФИКАЦИИ ГЛОБАЛЬНОЙ КОНВЕНЦИИ ЮНЕСКО О ПРИЗНАНИИ СВИДЕТЕЛЬСТВ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ВЫСШЕМУ ОБРАЗОВАНИЮ

Якубов Шухрат Умматалиевич,

доктор юридических наук, профессор,
директор Центра исследований
развития высшего образования

Аннотация. В данной статье на основе метода SWOT-анализа научно исследуется Глобальная конвенция ЮНЕСКО «О признании свидетельств, относящихся к высшему

образованию». Высказаны мнения о необходимости ратификации Узбекистаном данной международной конвенции, её сильных и слабых сторонах, возможностях и возможных угрозах. Изучена практика стран, ратифицировавших эту конвенцию. В рамках трансформации высшего образования научно и юридически спрогнозированы результаты, которые должны быть достигнуты благодаря присоединению к настоящей Конвенции. Также рассмотрены вопросы реформирования национального законодательства и практики Узбекистана на основе общего направления, подхода и механизмов в сфере признания трансграничного образования. Отмечается, что право лиц на справедливое и прозрачное признание их квалификаций о высшем образовании без какой-либо дискриминации должно быть безоговорочно гарантировано во всех странах мира. На основании этого научно проанализированы вопросы присоединения Узбекистана к данной конвенции и формирования необходимых организационно-правовых и институциональных механизмов. В заключительной части исследования сделан вывод о том, что Узбекистану целесообразно как можно скорее ратифицировать Глобальную конвенцию, несмотря на риски, которые могут возникнуть. Необходимость ратификации данной Конвенции научно обоснована с позиции усиления интеграции отечественных вузов с ведущими университетами мира, повышения их места в международных рейтингах, выхода образовательных услуг на зарубежный рынок и, главное, обеспечения права граждан на высшее образование.

Ключевые слова: Глобальная конвенция, трансграничное образование, высшее образование, признание квалификаций, академическая мобильность, ратификация, трансформация, национальные квалификации, учёная степень, учёное звание.

TRANSFORMATION OF HIGHER EDUCATION: THE NEED TO RATIFY THE UNESCO GLOBAL CONVENTION ON THE RECOGNITION OF QUALIFICATIONS IN HIGHER EDUCATION

Yakubov Shukhrat Ummatalievich,
Director of the Higher Education
Development Research Center,
Doctor of Law, Professor

Abstract. In this article, based on the SWOT analysis method, the UNESCO Global Convention «On the Recognition of Higher Education Qualifications» is scientifically researched. Opinions are expressed on the need for Uzbekistan to ratify this international convention, its strengths and weaknesses, opportunities, and possible threats. So far, the practices of countries that have ratified this Global Convention have been studied. In the transformation of higher education, scientifically and legally predicted the results to be achieved on the basis of accession to this Convention. The issues of reforming the national legislation and practice of Uzbekistan on the basis of the general direction, approach, and mechanisms in the field of recognition of cross-border education are also considered. It is noted that the right of individuals to a fair and transparent recognition of their higher education qualifications without any discrimination should be unconditionally guaranteed in all countries of the world. Based on this, the issues of Uzbekistan's accession to this convention and the formation of the necessary organizational, legal, and institutional mechanisms are scientifically analyzed. At the end of the study, it was concluded that Uzbekistan should ratify the Global Convention as soon as possible, despite the risks that may arise. The need to ratify this Convention is scientifically substantiated by the increased integration of domestic universities with the world's leading universities, increasing their place in international rankings, the entry of educational services to the foreign market, and, most importantly, ensuring the right of citizens to higher education.

Keywords: global convention, cross-border education, higher education, recognition of qualifications, academic mobility, ratification, transformation, national qualifications, academic degrees, academic titles.

Kirish

Globallashuv jarayonlari oliy ta'limga ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro miqyosda oliy ta'lim olish imkoniyatlarining kengayib borishi, rivojlangan davlatlardagi TOP-universitetlarga qiziqish va ularda tahsil olish istagining kuchayishi, jismoniy shaxslarning oliy ta'lim olish huquqini ta'minlash zarurati xalqaro darajada malakalarni tan olishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlarida 235 milliondan ortiq talabalar tahsil olayotgan bo'lsa, ularning 6 millionga yaqini xorijiy mamlakatlarda o'qimoqda. Bu jiddiy sur'atlarda yuksalib borayotgan tendensiya bo'lib, 2000-yillarda ushbu ko'rsatkich atigi ikki millionni tashkil qilgan. Kelgusi yillarda bu raqamlar yanada ortishi prognoz qilinmoqda [1].

YUNESKO tomonidan ushbu masalaning xalqaro standartlarini shakllantirish maqsadida "Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risida"gi Global konvensiyaning qabul qilinishi oliy ta'lim transformatsiyasida juda katta qadam bo'ldi. Bu yondashuv kelajakka befarq bo'lmagan har bir mamlakat tomonidan chuqur tahlil qilinishi, oliy ta'limga oid strategiyalarni belgilashda hisobga olinishi zarur. Shu jihatdan ushbu Global konvensiyaning milliy-huquqiy amaliyot nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish, tahlil qilish, uning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu ilmiy maqolada "Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risida"gi Global konvensiyaning o'ziga xos jihatlari, uni O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilish zarurati o'rganildi. Shuningdek, mazkur xalqaro hujjatga qo'shilish davlatga, oliy ta'lim tizimiga qanday ustunliklar berishi, mamlakatimizda oliy ta'limga oid malakalarning tan olinishi uchun qanday choralarni amalga oshirish zarurligi ilmiy tahlil qilindi. Maqolaning asosiy maqsadi "YUNESKO-

ning "Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risida"gi Global konvensiyasi O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun qanday masalalar hal etilishi kerak?" degan savolga javob topishdir.

Mazkur masalaning turli jihatlari hozirga qadar dunyo olimlari, tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan. Masalan, italiyalik bir guruh olimlar qochoqlarning Yevropa mamlakatlariga borganda, oliy ta'limga oid malakalarini tan olishda turli muammolarga uchrashini tahlil qilib, Global konvensiya bu muammolarni hal etishda muhim rol o'ynashini qayd etgan [2]. Yoki arab dunyosidagi qochqinlarning oliy ta'limdagi muammolari Iordaniyadagi Suriyadan qochib borgan talabalar misolida tahlil qilingan [3].

Shuningdek, Global konvensiya qabul qilingunga qadar amalda bo'lgan mintaqaviy hujjatlar va ularning amaliy ijrosi hamda xalqaro darajada shunday hujjatni qabul qilish muhimligi ham ayrim tadqiqotchilar izlanishlarida uchraydi. Xususan, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida ta'lim malakalarini adolatli va shaffof tan olish siyosatini o'zida aks ettirgan Tokio konvensiyasining implementatsiyasi monitoring qilingan [4].

Umuman, oliy ta'lim malakalarini tan olishga oid tizimning shakllanishi, uning globallashuv jarayoni qariyb ellik yillik tarixga ega. Ayrim tadqiqotchilar bu jarayonni quyidagi ikki bosqichga ajratib o'rgangan.

Birinchi bosqich 1970–1989-yillarni o'z ichiga olib, talaba va tadqiqotchilar harakatchanligini oshirish maqsadida imzolangan qator mintaqaviy konvensiyalarda o'z ifodasini topgan [5].

Ikkinchi bosqich esa 1990–2000-yillarda amalga oshgan bo'lib, oliy ta'limda sifatni kasholatlash mexanizmlari, yangicha ta'lim shakllari hamda ta'lim muassasalari xilma-xilligi kabi muammolarni inobatga olgan, yangidan tuzilgan bir qancha mintaqaviy konvensiyalarda o'z aksini topgan [6].

Olimlar Global konvensiyaning ishlab chiqilishi va amalga joriy etilayotganini ikkinchi

bosqichdagi ishlarning samarasi, eng yuqori natijasi hisoblanishini ta'kidlaydi.

Ayrim tadqiqotlarda mazkur Konvensiya qabul qilinishi uchun o'n yillar harakat qilinganligi qayd etiladi. Darhaqiqat, bu dunyo oliy ta'lim transformatsiyasi uchun juda muhim huquqiy asosdir.

Material va metodlar

Maqolada YUNESKOning "Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risida"gi Global konvensiyasi SWOT-tahlil metodi asosida ilmiy tadqiq qilindi. Mazkur xalqaro konvensiyani O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilish zarurati, uning kuchli va zaif jihatlari, imkoniyat va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlar haqida mulohazalar yuritildi.

Shuningdek, ushbu ilmiy maqolada qiyosiy tahlil va prognozlashtirish metodlaridan foydalanildi. Hozirgi kunga qadar ushbu Global konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar amaliyoti o'rganildi. Oliy ta'limni transformatsiya qilishda mazkur konvensiyaga qo'shilish asosida erishiladigan natijalar ilmiy-huquqiy prognoz qilindi.

Tadqiqot natijalari

Global konvensiya 2019-yil 25-noyabrda Fransiyaning Parij shahridagi YUNESKO Bosh anjumanining 40-sessiyasida qabul qilingan bo'lib, muqaddima, 6 bo'lim va 25 moddadan iborat.

Konvensiya – transchegaraviy ta'limni tan olish sohasida umumiy yo'nalish, yondashuv, mexanizm va prinsiplarni belgilab beradi. Konvensiya jismoniy shaxslarning oliy ta'limga oid malakalarining adolatli va shaffof tarzda, hech qanday kamsitishlarsiz tan olinish huquqini kafolatlaydi.

Global konvensiyaning XVIII moddasiga muvofiq, oliy ta'limga oid malakalarni tan olish huquqi YUNESKOga a'zo 20 ta davlat ratifikatsiya qilgandan so'ng kuchga kirishi belgilangan.

Global konvensiyani 2022-yil 5-dekabrda YUNESKOga a'zo davlatlardan 20 tasi ratifikatsiya qildi va hujjat 2023-yil 5-martdan boshlab kuchga kirdi [7].

2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, ushbu konvensiyani 24 ta davlat (Andorra, Avstraliya, Armaniston, Kabo-Verde, Kot-d'Ivuar, Kuba, Xorvatiya, Estoniya, Fransiya, Finlyandiya, Norvegiya, Nikaragua, Ruminiya, Tunis, Yaponiya, Litva, Islandiya, Falastin, Vatikan, Shvetsiya, Urugvay, Slovakiya, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi hamda Yaman) ratifikatsiya qilgan.

Mazkur konvensiya ishlab chiqilgunga qadar YUNESKO tomonidan oliy ta'limga oid 6 ta mintaqaviy konvensiya qabul qilingan bo'lib, 126 ta davlat ularning ayrimlarini ratifikatsiya qilgan. O'zbekiston hozircha ularga qo'shilmagan.

Oliy ta'limga oid xalqaro konvensiyalarni tahlil qilgan olim Friman Brigidning fikricha, birinchi avlod konvensiyalari, asosan, ekvivalentlikka e'tibor qaratgan. 1970–1980-yillarda birinchi davrga mansub oltita mintaqaviy konvensiya maydonga keldi. Bular Yevropa, Afrika, Osiyo Tinch okeani mintaqasida, Lotin Amerikasi va Karib havzasi, Yaqin Sharq hamda arab davlatlarida umumiy oliy ta'lim hududini yaratishi kerak edi.

Ushbu konvensiyalar kredit soatlari, o'quv dasturlari, fanlar, sertifikat hamda diplomlarning taqqoslanuvchanligiga urg'u bergan bo'lib, mazkur parametrlardagi keskin tafovutlar sababli amaliy natijaga erishish imkoni bo'lmadi. Shuning uchun ham ikkinchi avlodga mansub konvensiyalar maydonga kelib, darajalarni tan olish, ko'nikma va malakalarga e'tibor qaratildi.

Ikkinchi avlodga mansub konvensiyalar quyidagilar: Yevropa (Lissabon konvensiyasi, 1997; amalda); Afrika (Addis konvensiyasi, 2014; 2019-yildan beri amalda); Osiyo-Tinch okeani mintaqasi (Tokio Konvensiyasi, 2011; 2018-yildan beri amal qiladi); Lotin Amerikasi va Karib mintaqasi (Buenos Ayres konvensiyasi, 2019, hozircha kuchga ega emas); Global konvensiya (2019).

Malakalarni tan olish konvensiyalari tadrijiy ravishda ekvivalentlik, ya'ni ta'lim davri hamda tarkibini mexanik taqqoslash tamoyi-

lidan “tan olish”ga, ya’ni tegishli malakalarni ko’nikmalarga binoan soddalashtirilgan tartibdan tan olish tamoyiliga o’tishni o’zida namoyon qiladi [8].

YUNESKO bayonotiga ko’ra, tashkilot mamlakatlarni “mintaqaviy konvensiyalarni ratifikatsiya qilishini yuksak daraja rag’batlantirsa-da, Global konvensiyani ratifikatsiya qilishdan avval mintaqaviy konvensiyalarga qo’shilish sharti mavjud emas” [9].

YUNESKO ekspertlarining fikricha, Global konvensiyaga ko’p davlatlarni a’zo qilish osonlikcha amalga oshmaydi. Buning uchun ko’plab to’siqlar mavjud va ularni yengish kerak. Umid qilamizki, besh yildan keyin 50 ta mamlakat bu konvensiyani ratifikatsiya qiladi va o’n yildan keyin bu raqam 80 dan 100 gacha ortishi mumkin [10].

Tadqiqot davomida YUNESKOning “Oliy ta’limga oid malakalarni tan olish to’g’risida”gi Global konvensiya, uning mohiyati va ahamiyati, unga a’zo bo’lish shartlari, uni ratifikatsiya qilgan mamlakatlarning tajribalariga ko’ra erishiladigan ijobiy natijalar, yuzaga kelishi mumkin bo’lgan xavflar o’rganildi.

Kelajakda Global konvensiyani YUNESKOning 100 dan ortiq a’zo davlatlari ratifikatsiya qilishi hamda oliy ta’limga oid malakalar va ilmiy darajalarni tan olish bo’yicha yagona xalqaro huquqiy makon vujudga kelishi kutilmoqda.

Natijada konvensiyaga a’zo davlatlarning talaba, tadqiqotchi va professor-o’qituvchilari ishtirokchi davlatlar hududida o’qish va ishga joylashish masalasida ushbu mamlakat fuqarolari singari teng huquqlarga ega bo’ladilar. Yana bir muhim jihati, a’zo davlatlar o’rtasida oliy ta’limga oid malakalarni o’zaro tan olishga oid ikki tomonlama bitimlar tuzishga ehtiyoj qolmaydi.

Global konvensiya malakalarning tan olinishini soddalashtirishda “sezilarli farq tamoyili”ga tayanadi. Ushbu tamoyilga binoan, malakalar tarkibi, ko’nikmalar, ta’lim muddatlari o’rtasida keskin tafovutlar aniqlanmagan taqdirda, malaka tan olinishi lozim. “Sezilarli farq tamoyili”ni amalga tatbiq qilishda umumiy mexanizmlar mavjud bo’lmasa-da, ish tartibini belgilab beruvchi namunaviy andozalar tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan [11].

Shu bilan birga, Global konvensiya xorijiy ta’limni baholashda yondashuvlar tengligini kafolatlaydi. Shuningdek, tan olishni rad etish to’g’risidagi qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqini ta’minlaydi.

Mazkur xalqaro huquqiy hujjat YUNESKOga a’zo barcha davlatlar uchun ochiq hamda u BMTning oliy ta’lim bo’yicha birinchi butunjahon shartnomasiga aylanishi prognoz qilinmoqda.

Global konvensiyani ratifikatsiya qilish orqali davlatlar oliy ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, uning sifatini yaxshilashga erishadi. Shuningdek, xalqaro akademik mobillik hamda malakalarning tan olinish imkoniyatlari kengayadi.

Akademik harakatchanlik trendlari dalolat beradiki, kelajakda Osiyo qit’asidagi mamlakatlar akademik harakatchanlik nuqtayi nazaridan Shimoliy Amerika va Yevropani ortda qoldirishi mumkin. Xalqaro talabalarining ham eng katta qismi kelajakda kelib chiqishi Osiyodan bo’lgan talabalarga to’g’ri keladi.

Global konvensiya malakalarni tan olish bo’yicha muhim yuridik andoza sifatida xizmat qilish salohiyatiga ega. Ammo global hamda mintaqaviy konvensiyalarning amaliy nuqtayi nazardan qay darajada joriy qilinishi hukumatlarning uni qay darajada qo’llab-quvvatlashiga ham bog’liq.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida konvensiyasi maydonga kelgach, mintaqadagi mamlakatlar “Osiyo-Tinch okeani mintaqasi tar-mog’ining milliy matbuot markazlari” faoliyat boshlashi uchun dastlabki chora-tadbirlarni ko’ra boshladi. Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari hamjamiyatiga a’zo mamlakatlar kreditlarni ko’chirish hamda xorijiy malakalarni tan olishga doir bir qancha tashabbuslarni il-

gari suradi. Shuning uchun aytish mumkinki, mintaqaviy konvensiyalar amaliy jihatdan o'z mevasini berishni boshlamoqda.

Rivojlangan Osiyo hamda Yevropa mamlakatlari o'rtasida talabalarga oid ma'lumotlarni raqamli formatda almashish tizimi yo'lga qo'yilmoqda [12].

O'zbekiston uchun ham mazkur konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasini muhokama qilish muhim. Chunki talabalarining xorijga chiqishi mamlakatimizga ham yot hodisa emas. Ayniqsa, so'nggi yillarda bu tendensiya kuchayib bormoqda.

YUNESKO statistika institutining 2021-yil 1-yanvardagi ma'lumotlariga ko'ra, xorijda tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni 85,9 ming nafarni tashkil etgan [13].

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning 11 oyida 138,9 ming nafar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'qish maqsadida xorijga chiqqan [14].

O'zbekistonga kelayotgan talabalar soni ham yildan-yilga ortib borayotgan bo'lsa-da, hozirgi ko'rsatkichlar ijobiy emas. Xususan, 2022/23-o'quv yili boshiga O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar soni 5 ming nafarni tashkil etgan [15, 2-b.]. Ayniqsa, bu boshqa mamlakatlar bilan qiyosiy tahlillarda yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, qo'shni Qozog'istonda 30 mingga yaqin, Malayziyada 130 mingdan ortiq, Turkiyada 250 ming, Rossiyada 351 ming xorijlik talabalar tahsil olmoqda. Hozirda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan bu masalaga doir tegishli chora-tadbirlar ko'rilmogda. Xususan, xorijlik talabalarni O'zbekistonga jalb etishga qaratilgan maxsus elektron platforma yaratilmoqda. Shuningdek, mazkur sohaning institutsional mexanizmlarini kuchaytirish ustida ish olib borilmoqda.

Umuman, xorijda va O'zbekistonda tahsil olayotgan talabalar huquq va manfaatlarini birdek himoya qilish uchun ham Global konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasini jiddiy ko'rib chiqish zarur.

Qolaversa, chet elda olingan ta'lim va malakaning o'z mamlakatimizda tan olinishi xalqaro huquqiy mexanizmini kuchaytirish orqali xorijdagi bilimli, salohiyatli kadrlarni yurtimizga qaytarishga erishiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risidagi Global konvensiyani ratifikatsiya qilgan 20 dan ortiq mamlakatlarning tajribasi quyidagi afzalliklarni ko'rsatmoqda:

birinchidan, tan olish akademik mobillik, ilmiy tadqiqotlarning xalqarolashuvi va ta'lim olishning zaruriy shartlaridan biridir. Tadqiqotchi va talabalar harakati ta'lim tizimlari o'rtasida yangi g'oya va tashabbuslarni tarqatishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, ta'lim hamda tadqiqotlarning sifati va dolzarbligini kuchaytirishga ko'maklashadi.

Ikkinchidan, malaka va oldingi ta'limni tan olish tizimini yaratish oliygohlarga ilmiy tadqiqot hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, malakalarni tan olish uchun tuzilmalar talabalarni qabul qilish jarayoni sifatini ta'minlashga ko'maklashadi va migrantlar uchun oliy ta'lim olish imkoniyatini kengaytiradi.

Uchinchidan, malakalarni tan olish BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari 4-bandiga muvofiq, oliy ta'lim tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy ahamiyatini oshirish uchun ijtimoiy mas'uliyat bilan uzviy bog'liqdir.

Global konvensiyaning ijobiy jihatlari tahlil qilinganda, mazkur xalqaro huquqiy hujjatning istiqbollarini ilmiy prognoz qilgan olimlarning fikrlari ham e'tiborga molik. Xususan, xitoylik olimlar Ka Xo Mok va Xiao Xan "Global konvensiya rivojlanayotgan mamlakatlarda "ziyolilarning ketib qolishi" (brain drain) muammosiga qarshi samarali kurash vositasi bo'lish bilan birga, xorij tajribasidan foydalangan holda, oliy ta'lim tizimini zamonaviylashtirishga (brain-bridging) yordam beradi", degan fikrni ilgari suradi. Darhaqiqat, bu O'zbekiston uchun ham muhim omildir [16].

Shuningdek, yana bir guruh xorijlik olimlar o'z tadqiqotlarida "Global konvensiya akademik harakatchanlik va qo'shma ta'lim dasturlarining soni hamda sifatini oshirishga xizmat qiladi", degan fikrni bildirgan [17].

Ayrim olimlar malakalarni tan olishda firibgarlik holatlarining oldini olish masalalarini ham tahlil qilgan. Konvensiyaning 3-bo'lim 3-moddasi 8-bandida ishtirokchi davlatlar firibgarlik holatlariga qarshi texnologiyalardan foydalangan holda, o'zaro hamkorlikda kurashishi belgilangan. Ammo bunday hamkorlik qay tartibda amalga oshirilishi yechimini kuttib turgan masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Jorjio Pauletto kabi olimlarning fikricha, zamonaviy blokcheyn texnologiyasining paydo bo'lishi xorijiy malakalarni tan olish jarayonini texnologik jihatdan soddalashtirish hamda malakalarni tan olish jarayonlarida firibgarlikning oldini olishga xizmat qiladi [18].

QR-kodlardan foydalanishga o'tilishi natijasida masalaning texnologik jihatlari katta muammo tug'dirmasa-da, tashkiliy-ma'muriy tomondan hanuz umumiy ish tartibi mavjud emas.

Malaka xorijda tan olinsa ham, undan samarali foydalanishda madaniy [19], mehnat bozoriga xos kasb va til ko'nikmalari [20] kabi omillar, shubhasiz, muhim o'rin tutaveradi.

Mantiqan olib qaralsa, Fransiya mehnat bozorida talab qilinuvchi ko'nikmalar Turkiya mehnat bozorida kerak bo'ladigan kasb ko'nikmalaridan farq qilishi tabiiy.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasining "Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risida"gi Global konvensiyani ratifikatsiya qilishi natijasida quyidagi qiyinchiliklarga duch kelish xavflari mavjud:

- oliy ta'lim sifatining farqlanishi: barcha mamlakatlarda ta'lim sifatidagi farqlar, tan olish tizimlari rivojlanmaganligi, konvensiyada ko'zda tutilgan jarayonlarni amalga oshirish uchun milliy ma'lumot markazlari ochish bilan bog'liq moliyaviy, kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar va umuman olganda, butun ja-

rayonni qamrab oladigan tizim yaratilishi zarur bo'ladi;

- konvensiyaga a'zo davlatlar amal qiladigan oliy ta'limga oid xalqaro standart va ko'rsatmalarning O'zbekiston Respublikasida mavjud qonun-qoidalaridan farq qilishi hamda ular o'rtasidagi tafovutning yuqori ekanligi. Masalan, mamlakatimizda oliy ta'limdan keyingi ta'lim ikki bosqichda amalga oshiriladi. Xalqaro tajribada aksariyat mamlakatlarda, jumladan, konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlarda ham bu jarayon bir bosqichda tashkil etilgani kuzatiladi.

Mazkur holatda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan beriladigan ilmiy daraja va unvonlarning konvensiyani qabul qilgan davlatlar tomonidan tan olinmasligi ehtimoli yuqori ekanligini prognoz qilish mumkin.

Yuqoridagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarga qaramasdan, konvensiyani ratifikatsiya qilish O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga bir qator ustunliklar ham taqdim etadi.

Ularni quyidagilarda ko'rish mumkin:

- birinchidan, oliy ta'lim muassasalarining xalqarolashuvi hamda dunyoning yetakchi oliygohlari bilan integratsiyasi kuchayadi. Shuningdek, ta'lim xizmatlarining tashqi bozorga chiqishiga sharoit yaratiladi;

- ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro imiji oshadi, ta'lim xizmatlarining milliy va xalqaro bozordagi raqobatbardoshlik mavqeyi yanada mustahkamlanadi, xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallash imkoniyati paydo bo'ladi;

- uchinchidan, oliy ta'limga oid milliy malakalar, ilmiy daraja va unvonlarning xalqaro tan olinishi professor-o'qituvchilar hamda talabalar uchun tashqi akademik mobillik yutuqlaridan keng foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi;

- to'rtinchidan, oliy ta'lim muassasalarini xalqaro akkreditatsiya jarayonlaridan o'tkazish tezlashadi. Oliygothlar tomonidan berilayotgan malakalar xalqaro darajada tan

olinadi hamda ularning xalqaro talablarga muvofiqligi sinovdan o'tkaziladi;

beshinchidan, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari, professor-o'qituvchilarining jahon mehnat bozorida o'z o'rnini topishi, raqobatbardosh kadr sifatida tanilishi, xalqaro darajaga chiqishiga shart-sharoit yaratiladi;

oltinchidan, transchegaraviy oliy ta'limda sifatni ta'minlash bo'yicha ko'rsatma va mezonlardan foydalangan holda, ta'lim sifatini oshirishga erishiladi;

yettinchidan, zamonaviy oliy ta'lim tizimini bir qismi bo'lgan masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, masofaviy ta'limga ixtisoslashgan milliy va xorijdagi universitetlar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishda mazkur konvensiyani ratifikatsiya qilish muhim rol o'ynaydi.

Xulosalar

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan YUNESKOning "Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risida"gi Global konvensiyasini ratifikatsiya qilish taklifini o'z vakolati doirasida ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, Global konvensiyani ratifikatsiya qilish bilan davlat zimmasiga oladi-

gan majburiyatlarni bajarish uchun tegishli tashkiliy-huquqiy, institutsional mexanizmlarni yaratish choralarini ko'rishga tayyorlik ishlari boshlanishi zarur. Xususan, Konvensiyada belgilangan normalarni amalga oshirish uchun har bir a'zo davlatda alohida Milliy ma'lumot markazlari tashkil etilishi kerak. Ushbu markaz axborot xavfsizligi, kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, qisqasi, butun jaryonni qamrab oladigan tizim sifatida faoliyat olib borishi lozim.

Umuman, ta'limni xalqarolashtirish – bugungi kun talabi. Dunyoda shiddatli o'zgarishlar kechmoqda, ilm-fan taraqqiy etmoqda. Taraqqiyot bilan hamohang rivojlanishni maqsad qilgan har bir mamlakat dunyo trendlarini tan olishi va o'z vaqtida unga e'tibor qaratishi zarur. Shu nuqtayi nazardan konvensiyani ratifikatsiya qilishni tezlashtirish va unga tegishli choralar ko'rish lozim.

Zero, bu orqali YUNESKO tomonidan ilgari surilgan "Akademik Impakt" tashabbusiga [21] hamohang ravishda unda o'z aksini topgan ezgu g'oyalar asosida oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi rishtalarni mustahkamlash hamda global muammolarga ta'lim orqali yechim izlash imkoniyatlari ortadi.

REFERENCES

1. Global Convention on Higher Education. Available at: <https://www.unesco.org>.
2. Lantero L., Finocchietti C. Recognising Refugee Qualifications for Access to Higher Education: A European Perspective. Global Perspectives on the Difficulties and Opportunities Faced by Migrant and Refugee Students in Higher Education. 2023, June. DOI: 10.4018/978-1-6684-7781-6.ch003
3. Arab World Refugee Challenges in Higher Education: The Case of Syrian Refugee Students in Jordan Qusai Haj-Yehiya and Khalid Ara Higher education challenges for immigrant and refugee students in a global world. New York, Peter Lang.
4. Teter W.R., Wang L. Monitoring implementation of the Tokyo Convention on recognition: a multi-stakeholder approach to the internationalization of higher education in the Asia-Pacific. *International Journal of Comparative Education and Development*, 2021, July. DOI: 10.1108/IJCED-10-2020-0075.
5. Making History: The Importance of a New Global Convention on the Recognition of Higher Education Qualifications. Available at: [unesco.org](https://www.unesco.org)

6. Draft preliminary report concerning the preparation of a global convention on the recognition of higher education qualifications. UNESCO Digital Library. Available at: <https://www.unesco.org/en/higher-education/global-convention>
7. Freeman B. Global and national qualifications recognition governance: Tensions, myths, and opportunities to maximise graduate mobility. 2021. DOI: 10.13140/RG.2.2.28649.01123.
8. O'Malley B. UN treaty on qualifications recognition enters into force. 2023, March 3. Available at: <https://www.universityworldnews.com/post>
9. Mitchell N. Global HE recognition convention parties get to work. 2023, July 14. Available at: <https://www.universityworldnews.com/post.php?story>
10. Hunt E.S., Bergan S. Developing attitudes to recognition: substantial differences in an age of globalization. *Council of Europe higher education series (coe.int)*, 2010, no. 13.
11. Lokhoff J. Recognition of Foreign Qualifications Celebrates Higher Education Collaboration Too. Eds. H. Van't Land, A. Corcoran, D.C. Iancu. *The Promise of Higher Education*, Springer, Cham., 2021. DOI: 10.1007/978-3-030-67245-4_29
12. Based on the materials of the Statistical Institute of UNESCO. The number of foreign students studying in Uzbekistan was reported. Available at: www.kun.uz
13. It became known in which countries the most Uzbek students study. Based on the materials of the Statistical Agency under the President of the Republic of Uzbekistan. Available at: www.xabar.uz
14. HEMIS. Information system for management of higher education processes. Available at: <https://hemis.uz>
15. Mok K.H., Han X. From 'brain drain' to 'brain bridging': transnational higher education development and graduate employment in China. *Journal of Higher Education Policy and Management*, 2016, vol. 38 (3), pp. 369–389. DOI: 10.1080/1360080X.2016.1174409
16. Tran N.H.N., Carla A.A.E.F., Santos S.P. Challenges and success factors of transnational higher education: a systematic review. *Studies in Higher Education*, 2023, vol. 48 (1), pp. 113–136.
17. Michoulis G., Petridou S., Vergidis K. Verification of Academic Qualifications through Ethereum Blockchain: An Introduction to VerDe. 2020.
18. Elspeth J. Internationalization and employability: The role of intercultural experiences in the development of transferable skills. *Public Money & Management*, 2013, no. 33. DOI: 10.1080/09540962.2013.763416.
19. Duvander A.-Z. Do Country-Specific Skills Lead to Improved Labor Market Positions? An Analysis of Unemployment and Labor Market Returns to Education among Immigrants in Sweden. *Work and Occupations (Work Occupation)*, 2001, no. 28, pp. 210–233. DOI: 10.1177/0730888.
20. Uvalic-Trumbic S. UNESCO's Role in the Development of Higher Education in a Globalized World. UNESCO, Paris, France. Elsevier Ltd, 2010.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 4-son

VOLUME 7 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.4.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, E. Mustafayev

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 21.12.2023-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 17,67 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 127.
TDYU tipografiyasida chop etildi.